



THE ROLE OF THE PUBLIC OVERSIGHT INSTITUTE IN UZBEKISTAN IN THE ELECTRONIC GOVERNANCE SYSTEM

Iroda Khamidullayeva

Faculty of Law Master's student

Namangan state university

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: e-government, public oversight, openness, digitalization, government agencies, civil society.

Received: 04.02.26

Accepted: 05.02.26

Published: 06.02.26

Abstract: This article analyzes the current legal framework for implementing public oversight within the framework of the electronic governance system in the Republic of Uzbekistan. It also presents problems that hinder the effectiveness of public oversight and puts forward proposals for their elimination.

O'ZBEKISTONDA JAMOATCHILIK NAZORATI INSTITUTINING ELEKTRON BOSHQARUV TIZIMIDAGI O'RNI

Iroda Xamidullayeva

Yuridik fakulteti magistranti

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: elektron boshqaruv, jamoatchilik nazorati, ochiqlik, raqamlashtirish, davlat organlari, fuqarolik jamiyati.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida elektron boshqaruv tizimi doirasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning amaldagi huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek jamoatchilik nazoratining samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

РОЛЬ ИНСТИТУТА ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ В СИСТЕМЕ ЭЛЕКТРОННОГО УПРАВЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Ирода Хамидуллаева*Магистрант**Юридического факультета**Наманганского государственного университета**Наманган, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: электронное правительство, общественный контроль, открытость, цифровизация, государственные органы, гражданское общество.

Аннотация: В статье анализируется действующее законодательство по осуществлению общественного контроля в рамках системы электронного управления в Республике Узбекистан выявляются проблемы препятствующие повышению эффективности общественного контроля и даются предложения по их устранению.

Bugungi kunda jamoatchilik nazoratini xalq manfaatlarini ishonchli himoya qiluvchi tizim, davlat organlari faoliyati ustidan qonuniy nazorat olib boruvchi, ya'ni "Xalq ko'zgusi" vakolatiga ega bo'lgan jamoatchilik institutlarining umummilliy harakati desak mubolag'a bo'lmaydi. 2018-yil 12-aprelda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyev tomondan imzolandi. Ushbu qonun 21 moddadan iborat bo'lib, qonunning maqsadi davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish va amalga oshirish tizimidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat [1].

Ushbu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev, "... mavjud bo'lgan muammolarni aniqlash, ularni chuqur tahlil qilish, yechimlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish, ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashga ijtimoiy buyurtma asosida nodavlat notijorat tashkilotlarni keng jalb etiladi. Bu hamkorlik, eng avvalo, ta'lim, madaniyat, tibbiyot, ekologiya, qurilish, kadastr, transport, kommunal xo'jaligi, bandlike, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi muammoli sohalarda keng joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ishlarni tashkil etish uchun kelgusi yilda budjetdan 60 mlrd so'm yo'naltiriladi",- deb ta'kidlaydi[2]. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan huquqiy jarayonlarni chuqurlashtirish yo'llari belgilab o'tilgan puxta ishlangan va har tomonlama asoslangan demokratik islohotlarning amaliyotga joriy etilishi aholining siyosiy ijtimoiy faolligini ko'tarishga fuqarolik jamiyatining tarkibini tashkil qiluvchi demokratik institutlar ko'ppartiyaviy tizim, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qilishi kerak. Bu institutlarning faoliyat shakllari qatorida jamoatchilik nazorati alohida ahamiyatga hisoblanadi[3]. Fuqarolik jamiyatining ajralmas belgilaridan shuki jamoatchilik nazorati hisoblanib fuqarolik jamiyati institutlari keng jamoatchilik tomonidan davlat hokimiyati shu bilan birga davlat organlari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zamon talabi bo'lib u raqamli texnologiyalar orqali yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda

raqamlashtirish jarayonlari jadal rivojlanib davlat xizmati ko'rsatishning elektron shakllari kengaymoqda. Bunda jamoatchilik nazorati institutining elektron boshqaruv tizimidagi o'rni tobora o'sib bormoqda. Bugungi kunimizda jamiyat hayotidagi eng muhim muammolarni hal qilishni eng birinchi bo'lib jamoatchilik nazorati instituti faoliyatini yurtimizda takomillashtirishdan iboratdir. Buning uchun avvalo fuqarolarning yuridik huquqlari va qonuniy manfaatlarini tushuntirish qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda qararlarda jamoatchilik nazoratining amaliy uslublarini rivojlantirish hamda mexanizmlari uchun sharoit yaratish muhim hisoblanadi [4]. Tadqiqotchi Yu.N. Starilov fikricha: "... davlat boshqaruvi ijro hokimiyatini amalga oshirish maqsadida tashkil etiladi" davlat boshqaruvi keng ma'noda davlatning tartibga solish faoliyati maxsus subyektlarning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishi hisoblanadi[3]. Tashkiliy nuqtai nazardan, davlat boshqaruvi – boshqaruv sub'yekti (davlat, davlat organlari yoki mansabdor shaxslar)ning boshqaruv obekti (jamiyat, fuqarolar)ga nisbatan hokimiyat ta'siri hisoblanadi. Yanada aniqlashtiradigan bo'lsak, davlat boshqaruvi – bu qonun asosida va uni amalga oshirish maqsadida turli sohalarida (ijtimoiy-madaniy, xo'jalik va ma'muriy-siyosiy qurilish) davlat boshqaruvi vazifalarini amalga oshiruvchi ijro hokimiyati organlarining maqsadga muvofiq tashkil etilgan, qonunosti, ijrochilik-farmoyish berish va tartibga solishga qaratilgan faoliyatidir.

Izlanuvchi Yu.M. Kozlovning aytishicha, davlat boshqaruvi – har qanday davlat faoliyati singari qaror qabul qilish, uni ijro etish va uning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishdan iboratdir[5]. Davlat boshqaruvi bu davlatning iqtisodiy siyosiy va madaniy sohalarida o'zining maqsadlari va funksiyalarini amalga oshirish uchun tashkil etilgan tizimdir. Davlat boshqaruvi jarayonini amalga oshirishda asosiy o'rinda davlat boshqaruv organlari va xizmatchilari turadi. Davlat boshqaruvi bu birinchi o'rinda davlatning ichki va tashqi ishlarini muvofiqlashtiruvchi jamiyatning barcha sohalarida barqarorlikni ta'minlash ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish jarayonidir. Davlat boshqaruvi tizimi ko'plab tuzilmalar va organdan iborat bo'lib, ular o'zaro hamkorlikda jamiyatning barqaror ishlashini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu tizimda boshqaruv organlari va xizmatchilari muhim rol o'ynaydi. Boshqaruv organlari davlatning siyosiy ijtimoiy iqtisodiy tizimlarini boshqarish va tartibga solish uchun tashkil etilgan tuzilmalardir. Avvalo, elektron boshqaruv tizimi nima ekanligini bilib olishimiz kerak. Elektron hukumat- davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li orqali davlat xizmatlarini ko'rsatishga doir faoliyatni shuningdek idoralararo hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy huquqiy chora-tadbirlar tizimi[6]. Elektron boshqaruv bu elektron qurilmalar yordamida tizim yoki jarayonni boshqarish jarayoni. Bu tizim yoki jarayonni kuzatish va boshqarish uchun kompyuterlar sensorlar va boshqa elektron qurilmalardan foydalanadigan avtomotlashtirish shaklidir. Ya'ni biz buni elektron boshqaruv tizimini elektron

hukumat deb ham atashimiz mumkin. Elektron hukumatning asosiy maqsadi mukammal elektron boshqaruv apparatini yaratishdan iborat hisoblanadi. Bugungi kunda respublikamizda elektron hukumat tizimining barcha tashkiliy va institutsional masalalari hal etilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, elektron boshqaruv bo'yicha Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning murojaatlari asosida Nukus, Buxoro, Samarqand, Guliston va Urganch shaharlarida IT parklarning tashkil etilishi, elektron hukumat tizimining barcha tashkiliy va institutsional masalalari hal etilishi nazarda tutilgan. Shuningdek qurilish, energetika qishloq va suv xo'jaligi transport, sog'liqni saqlash, kadastr, ta'lim sohalari to'liq raqamlashtirishga o'tishi rejalashtirilgan. Raqamli O'zbekiston 2030 dasturini ishlab chiqilish hamda ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida hukumatda bosh vazir o'rinbosari, vazirlik va idoralarda hamda hokimliklarda esa alohida o'rinbosar lavozimlari joriy etilishi rejalashtirilgan[7].

Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari ustuvor yo'nalishlarini hamda o'rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarni belgilab beradi shu bilan bir qatorda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida ko'rsatilgan vazifalardan kelib chiqib raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu tizimga bunday e'tibor berilishi elektron boshqaruv tizimining bugungi kunda davlat faoliyatining ochiqligi samaradorligi va shaffofligini ta'minlashda muhim omil ekanligidir. Bunday ta'minotni amalga oshirishda elektron hukumat elektron boshqaruv atamalarini quyidagi 4 ta asosiy qism bilan umumlashtirish mumkin:

- aktdan foydalanish ya'ni kompyuter tarmoqlari internet faks;
- hukumat faoliyatini qo'llab-quvvatlash axborot bilan ta'minlash, xizmatlar;
- fuqarolar bilan hukumat munosabatlarini rivojlantirish;
- belgilangan strategiyalarga mos ravishda ishtirokchilarni jarayonlarda qatnashish imkoniyatini oshirish.

Jamoatchilik nazorati nima degan savolga javob bersak. Huquqshunos olim H. Odilqoriyev: "davlat hokimiyati idoralari va ularning mansabdor shaxslari ustidan jamoatchilik nazorati davlat tomonidan ta'minlanishi lozim deb ta'kidlagan[8]. Sh. Yakubov "Jamoatchilik nazoratining amaldagi samarali joriy qilinishi orqali davlat organlari faoliyatida qonuniylik ta'minlanadi",-deb aytib o'tgan[9]. Milliy qonunchilikda elektron boshqaruv tizimida jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslariga e'tibor bersak, O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslari quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin: Konstitutsiya (2023-yil), Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun(2018 yil 29-martda qabul qilingan, Elektron hukumat to'g'risidagi qonun(2015 yil 9-dekabrda qabul qilingan), Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonun (2014-yil 5-aprelda

qabul qilingan), Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida 4699-sonli Prezident qarori. Mazkur normativ hujjatlar elektron boshqaruv tizimida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda huquqiy asos bo'lsada, ayrim muammolar ko'zga tashlanadi:

- ayrim davlat idoralari tomonidan ma'lumotlarning ochiq e'lon qilinmasligi;
 - huquqiy savodxonligi yetarli emasligi;
 - raqamli platformalarning texnik imkoniyatlari cheklangani;
 - jamoatchilik nazorati shakllarining huquqiy mexanizmlari yetarli aniqlashtirilmaganligi.
- Bunday muammolarni qonunchilikni takomillashtirish bunda elektron jamoatchilik nazoratiga oid normalarni alohida qonun yoki bob shaklida mustahkamlash hamda elektron platformalarni rivojlantirish, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik mulohazalarini onlayn qabul qilish tizimini joriy qilish bilan yechim topish mumkin bo'ladi. Shuningdek, huquqiy savodxonlikni oshirish, aholi orasida jamoatchilik nazorati bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish hamda ochiq ma'lumotlar portallarini kengaytirish bilan ma'lumotlar ochiqqligi orqali nazorat samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilishi samarali bo'ladi.

Yurtimizda elektron hukumatni rivojlantirish sohasi bo'yicha amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar natijasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining (E-government Survey)ning navbatdagi reytingiga O'zbekiston 193 ta davlat orasida 69-orinni egallab 18 pog'onaga ko'tarildi. Shu bilan bir qatorda "GovTech Maturity Index" natijalariga ko'ra O'zbekiston ushbu yilda hukumat va davlat xizmatlari sektori bo'yicha – 37 pog'ona yuqorilab 43-o'rinni raqamli ko'nikmalar va davlat xizmatlaridagi innovatsiyalar bo'yicha 65 pog'ona yuqorilab 4-o'rinni egalladi. Toshkent viloyatida "Elektron hukumat tizimini ma'lumotlarini saqlash va qayta ishlash yagona markazi" ishga tushirilgan. Shuni alohida aytib o'tish kerakki, ma'lumotlarni qayta ishlash markazi "Uptime Instute"ning TIER III sertifikatiga ega hisoblanadi [10].

O'ylashimizcha, qonunchilikni rivojlantirish raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali jamoatchilik nazoratining ta'sirchanligiga erishish mumkin. Xalqaro tajribalardan Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya davlatlari elektron boshqaruvning ilg'or texnologiyalari va sun'iy intellekt yordamida davlat xizmatlarini samarali boshqarish imkoni yaratilganligini ko'rish mumkin. Sun'iy intellekt yordamida arizalarni saralash, elektron sud tizimida hujjatlarni qayta ishlash soliq deklaratsiyasini tahlil qilish jarayonlari yo'lga qo'yiladi. Xizmat ko'rsatish tezligi 30-70%ga oshadi. Chatbotlar va virtual yordamchilar 24/7 ishlab fuqarolarning murojaatlarini tezkor qayta ishlash imkonini beradi.

Ma'lumotlar xavfsizligi va shaffofligini, Blokcheyn texnologiyasi davlat reyesterida ma'lumotlarning barqarorligini ta'minlaydi. Shu qatorda bulutli hisoblash tizimlari davlat

xizmatlarini doimiy ishlashini ta'minlab, server va infratuzilma xarajatlari sezilarli darajada kamayadi. Bu esa elektron hukumat tizimining ishonchlilik va xavfsizligini ta'minlaydi.

Katta ma'lumotlar Big Data orqali davlat boshqaruvi yanada prognozlashga asoslangan hamda real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkoniyatini hosil qiladi. Masalan: transport tizimida tirbandliklarni oldini aniqlash, shaharlarda transport oqimini optimallashtirish, tibbiyot sohasida kasalliklarni oldindan prognoz qilish, ta'lim sohasida o'quvchini baholash, turli sohalarda strategik qarorlar asosli qabul qilinadi. Estoniya davlati yuqori elektron hukumatga ega bo'lib, E-Government 4.0 sun'iy intellekt va avtomotlashtirishga asoslanadi. Ushbu bosqichda davlat xizmatlarini yanada tezkor qulay shaffof shaklga keltirish, buyrokratik xarajatlarni kamaytirish, korrupsiyani xavfini pasaytirish shu bilan bir qatorda fuqarolar ehtiyojlarini real vaqt rejimida hisobga olish imkoniyati vujudga keladi[11]. Singapurda esa Smart nation strategiyasi doirasida SI va Big Data orqali ta'lim, tibbiyot sohalari samarali faoliyat yuritmoqda. Janubiy Koreya davlatida esa davlat xizmatlarining 80%i avtomatlashtirilgan.

Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy va institutsional asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.04.2018 yildagi O'RQ-474-son
2. Mirziyoyev Sh.M.ning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/01/24/president-speech/>.
3. Hosilova Sh.A. O'zbekiston Respublikasida davlat organlari ustidan jamoatchilik nazorati: nazariy – huquqiy masalalari. dis...avtoreferat. –T., 2021. 28-b.
4. Usarova F. Jamoatchilik nazorati tizimida siyosiy madaniyat masalalari//Fuqarolik jamiyati – Civil society. –2021. №1(61). –B.15.
5. Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимэн А.Н. Административное право: Учебник. — М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2004. 280-с.
6. Атаманчук Г.В. Теория государственного управления: Курс лекций. М.: 1997. 120-с.
7. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.12.2015 yildagi O'RQ-395-son
8. <https://www.gazeta.uz/>
9. Конституциявий ҳуқуқ. Ҳ.Одилқориев, С Дарслик. Ў.Х.Муҳамедов, вабошқалар. Масъул муҳаррир Yakubov Sh.U. “Jamoatchilik nazoratini raqamlashtirish: zarurat va istiqbollari ” // Yurisprudensiya, Ilmiy- huquqiy jurnal. TDYU. 2021-yil, № 1-son. 6-14-betlar.
10. Yakubov Sh.U. “Jamoatchilik nazoratini raqamlashtirish: zarurat va istiqbollari ” // Yurisprudensiya, Ilmiy- huquqiy jurnal. TDYU. 2021-yil, № 1-son. 6-bet.

11. Nuriddinov Oybek Muhammad o'g'li. AXBOROTLASHTIRISHDAN RAQAMLASHTIRISH SARI "Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" Davlat muassasasi bo'lim boshlig'i Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali 2-son [www. Infocom.uz](http://www.infocom.uz).

12. Elektron hukumatda sun'iy intellect va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqola Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali "Al-Farg'oniy avlodlari" elektron ilmiy jurnali ISSN 2181-4252 Tom: 1 | Son: 4 | 2023-yil.